

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30 12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ESIRGAPOV FARXODJON BOBIROVICH

O'ZBEKISTON KICHIK SHAHARLARINING SHAKLLANISHI VA
RIVOJLANISHIDAGI ZAMONAVIY TAMOYILLAR
(Samarqand viloyatidagi kichik shaharlar misolida)

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish.
Landshaft arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

ARXITEKTURA BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

**Arxitektura bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по архитектуре**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on architecture**

Esirgapov Farxodjon Bobirovich

О'zbekiston kichik shaharlarining shakllanishi va rivojlanishidagi zamonaviy tamoyillar (Samarqand viloyatidagi kichik shaharlar misolida) 3

Эсиргапов Фарходжон Бобирович

Современные принципы формирования и развития малых городов Узбекистана (на примере малых городов Самаркандской области) 21

Esirgapov Farkhod Boburovich

Modern principles of formation and development of small towns of Uzbekistan (on the example of small towns in Samarkand region) 41

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30 12.2019.A.11.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

ESIRGAPOV FARXODJON BOBIROVICH

O'ZBEKISTON KICHIK SHAHARLARINING SHAKLLANISHI VA
RIVOJLANISHIDAGI ZAMONAVIY TAMOYILLAR
(Samarqand viloyatidagi kichik shaharlar misolida)

18.00.02 – Rayonlashtirish. Shaharsozlik. Qishloq turar joylarini rejalashtirish. Landshaft
arxitekturasi. Bino va inshootlar arxitekturasi

ARXITEKTURA BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestasiya komissiyasida B2020.3/PhD.A53 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengashning veb-sahifasida (<http://www.taqi.uz/interaktiv-xizmatlar/taqi-ilmiy-faoliyati/ixtisoslashgan-kengashlar/avtoref.html>) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyo.net) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xidirov Muxsin Mixaylovich
arxitektura fanlari nomzodi, dosent

Rasmiy opponentlar:

Salimov Arifdjon Muslimovich
arxitektura fanlari doktori, professor

Qayumov Xabib Isxakovich
arxitektura fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

"O'zshaharsozlikLITI" DUK

Dissertatsiya himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.A.11.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "06" sentyabr soat 13⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A. Qodiriy ko'chasi, 7b-uy. Arxitektura fakulteti majlislar zali. Tel.+99871 241-80-02, faks: +99871 241-80-02, web www.taqi.uz; e-mail: devon@taqi.uz.)

Dissertatsiya bilan Toshkent arxitektura-qurilish universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin(112-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100149, Toshkent shahri, Yunusobod tumani Yangishahar ko'chasi, 9-uy. Tel.:+99855 508-02-89).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «21» avgust kuni tarqatildi.

(2023 yil "22" avgust dagi 46-raqamli reestr bayonnomasi).

K.Dj. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
v.v.b texnika fanlari doktori, professor

Sh.S. Reyimbaev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, arxitektura fanlari nomzodi, dotsent

A.A. Saidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, arxitektura
fanlari nomzodi, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) Dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida barqaror shaharsozlik deb nomlangan, ijtimoiy xarakterga asoslangan, ekologik ustuvorlikka qaratilgan iqtisodiy samarador yo'nalish faol rivojlanmoqda. Jahon shaharsozligida kichik shaharlarni innovasion g'oyalar asosida master planlarini ishlab chiqish dunyo tajribasida shaharsozlik muammolarining yechimini hal qilishdagi samaradorligini isbotlamoqda. Dunyoda kichik shaharlar rivoji bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda, ularda ko'proq zamonaviy shaharsozlik, qulay transport tizimi, soglikni saqlash, xavfsiz, ekologik toza shahar va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni ham barqaror rivojlantirish vazifasiga e'tibor qaratish dolzarb hisoblanmoqda. Hozirgi kunda ham barcha shaharlarimizdagi aholiga qulay sharoitlar yaratish, inson vaqtini tejash, ekologik toza, xavfsiz shaharlarni rivojlantirish tomoyillari ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston shaharlarining zamonaviy rivojlanishi esa to'xtovsiz urbanizatsiyalanish jarayonlarini boshidan kechirmoqda. Bu o'z navbatida jamiyat hayotining ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, madaniy-maishiy sohalarida ko'zga tashlanmoqdaki, bunda qishloqlarga ko'ra kichik shaharlar ahamiyatining o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. "Shaharsozlik faoliyati sohasida davlat siyosatini amalga oshirish, shaharsozlik talablari va texnologiyalarini hisobga olgan holda hududlarni iqtisodiy rivojlantirish, rejalashtirish loyihalari hamda shahar, kichik shahar, shahar tipidagi posyolka, tuman va tuman markazlarini rejalashtirish loyihalari, aholi punktlarining bosh rejalari, batafsil rejalashtirish loyihalari va hududlarga oid boshqa shaharsozlik hujjatlarining ishlab chiqilishi respublikamizning rivojlanib borishida alohida ahamiyat kasb etmoqda"¹. Respublikamizdagi ko'p sonli kichik shaharlarni barcha qulayliklar va imkoniyatlarga ega bo'lgan rivojlangan shaharlarga aylantirish kun tartibidagi dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-noyabrdagi PF-5577-son "Qurilish sohasini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 10-yanvardagi PF-5623-son "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 13-martdagi PF-5963-son "O'zbekiston Respublikasining Qurilish sohasida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlari, 2009-yil 26-yanvardagi PQ-1046-son "O'zbekiston Respublikasida arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 27-apreldagi 165-son "Arxitektura va qurilish sohasidagi ishlarni tashkil etish va nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2000-yil 14-avgustdagi 320-son "Shaharlar, kichik shaharlar, tuman markazlari va shahar tipdagi posyolkalarning bosh rejalarni ishlab chiqish va ularni qurish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi, 2009-yil 9-martdagi 59-son "Zamonaviy arxitektura-shaharsozlik talablarini hisobga olgan holda aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlarida va

¹ Mirziyoev Sh.M. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi, 16 yanvar 2017-y-B. 1

shu sohaga tegishli boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I-“Axborotlashgan va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari” ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasi hududi tarkibiga ma'muriy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va poytaxtimiz Toshkent shahri kiradi. Ular tarkibiga 163 ta tuman, 119 ta shahar va 115 ta shahar tipidagi posyolkalar yoki shaharchalar kiradi.

Shaharlarning shakllanishi va rivojlanish tamoyillariga ta'luqli muammolar mamlakatimizda R.Sh Avazov², Sh.D. Achilov³, F.F. Bakirxanov⁴, T.Maxmudov, M.K. Mirzayev, X.K. Tursunov⁵, D.V. M.U.Umarovlarning⁶ tadqiqotlarida, MDX davlatlarida esa A.Z. Belinskiy, V.M. Lyax, I.Xyunerbayn, R.I. Xabibullin, shuningdek chet el davlatlarida S. Alexander, W. Attoe, D. Logan, R. Linch kabi olimlarning olib borgan tadqiqotlarida muayyan yechimlarga ega.

Tadqiqotning nazariy bazasi sifatida shaharlarning kelib chiqishi va tipologik xususiyatlari to'g'risidagi muhim masalalarni tadqiq etgan Sh.D.Askarov⁷, M.Q. Axmedov⁸, V.L. Voronina⁹, A.E.Gutnov¹⁰, V.A.Lavrov¹¹, G.A.Pugachenkova¹², I.I. Notkin¹³, Sh.Nurmuxammedova¹⁴, M.A. Yusupova¹⁵ asarlari xizmat qiladi. Aholi joylashuvining guruhli shakli va shaharsozlik sohasida tadqiqot olib borgan L.N.Avdotin¹⁶, Baranov N.V.¹⁷, B.N. Belousov¹⁸, Yu.P. Bocharov¹⁹, A.V.Bunin²⁰,

² Авазов Р.Ш. Самарканд теряет свою архитектурную самобытность.-<http://sv.zarmevws/uz/post/raxim-avazov-samarqand-teryayet-svoyu-arkhitekturnuyu-samabitnost-1545043824>;

³ Ачиллов Ш.Дж.. Архитектурно-планировочная организация сельских поселков Узбекистана. Учебное пособие. Ташкент. Изд. “Ўқитувчи”. 1992.

⁴ Турсунов Х.К.,Бакирханов Ф.Ф., Умаров М.У. Градостроительство Узбекистана: некоторые итоги и ориентиры развития. // Архитектура и строительство Узбекистана, 2001, № 3-4-С.23-29.

⁵ Турсунов Х.К. Урбанистический потенциал Узбекистана.// Архитектура и строительство Узбекистана, 2000, № 2-3-С.4-7.

⁶ Умаров М.У. Градостроительные аспекты развития сельских населенных пунктов в системе расления Узбекистана. Автореферат диссертации на соискании учёной степкни кондитдата архитектуры. Ташкент, 2010.

⁷ Аскарлов Ш.Дж. Генезис архитектуры Узбекистана.-Ташкент: Издательство журнала «Санъат», 2014.;

⁸ Ахмедов М.Қ. Ўзбекистон ўрта асрлар меъморий ансамбллари тараккиётининг тарихий-назарий асослари. Меъморчилик док. дис.-Тошкент: ТАҚИ, 1996.;

⁹ Воронина В.Л. Ансамбли Среднеазиатских городов// Архитектурное наследие.-М.:1976.-№ 24;

¹⁰ Гутнов А.Э. Будущее города.-М.1977г

¹¹ Лавров В. А. Город и его общественный центр.-М.: “Стройиздат”, 1964.-С. 23.

¹² Пугаченкова Г.А. Памятники архитектуры Средней Азии эпохи Наваи.-Тошкент: Издательство САГУ, 1957.-С. 94.

¹³ Ноткин И.И. Эволюционно-структурные процессы в среднеазиатском градостроительстве XVIII-XIX вв.//Градостроительство и архитектура-Ташкент, 1989-С. 81.

¹⁴ Нурмухаммедова Ш.З. Закономерности и стилевые особенности архитектуры Узбекистана античного периода-Ташкент, 2018.

¹⁵ Юсупова М.А. Полвека трансформации архитектуры Узбекистана. (конец XIX начало XX вв.)-Тошкент: “Print-s”-2005.;

¹⁶ Баранов Н.В. Главный архитектор города.-М.:“Стройиздат”, 1979-С. 41-47.

¹⁷ Баранов Н.В. Главный архитектор города.-М.:“Стройиздат”, 1979-С. 41-47.

¹⁸ Белоусов Б.Н. Градостроительство. Справочник проектировщика. Стройиздат. Москва. 1978

¹⁹ Авдоткин Л.Н. Применение вычислительной техники моделирования в архитектурном проектировании. Учебно пособие для вузов :Стройиздат, 1987

²⁰ Бунин А.В. Архитектурная композиция городов.-М, 1978

V.V. Vladimirov²¹, N.M. Demin²², I.G.Lejava²³, I.M. Smolyar, Z.N.Yargina²⁴, A.V.Vetlugina²⁵, D.U. Isomuxammedova²⁶, M.B. Xudoyarova²⁷ asarlari kichik shaharlarni guruhli aholi joylashuvida shakllanishi va rivojlanishini o'rganish bo'yicha muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xorijlik olimlar: K.Lynch²⁸, J. Jacobs, C. Alexander, D.Aronin, Y. Ashihara, W. Attoe, F. Coetter, R. Crier, J.Kandilis, D. Logan, K.Rimsha, C. Rowe shaharlarning rejayiy strukturasi takomillashtirish to'g'risida tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, dissertatsiyada chet ellik amaliyotchi arxitektorlar Le Corbusie, E. Govard, T.Garnie, K. Doksiadis, O. Nimayer, M. Safdi, Soria Matta, K Tangelarning shaharsozlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy ishlari tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilingan.

Aholi yashash joyining bosh rejasi uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar, respublika va uning mintaqalarini rivojlantirish prognozlarini, tumanni rejalashtirish sxemalari yoki loyihalari asosida ishlab chiqilib, aholi yashash joylarini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari va chegaralarini, ular hududining funksional vazifasini va qurilishni zonalashtirishni, muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmasini kompleks rivojlantirishni, hududlarni o'zlashtirishning navbatma-navbatligini, tarixiy-madaniy meros obyektlarini saqlash, aholi yashash joyining ekologik va sanitariya holatiga qo'yiladigan talablarni belgilab beradi. Hozirgi kunda respublikamizning barcha viloyatlari tumanlarining bosh rejasi, aholi yashash joylarining arxitektura-rejalashtirish tuzilmasi, ularning qishloq hududlari bilan birgalikda uyg'un rivojlan-tirilishini ta'minlash va ushbu hududlarning xam arxitektura va shahar qurilishini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari ishlab chiqilib, zamonaviy arxitektura va shaharsozlikning badiiy estetik jihatdan jahon talablariga mos keladigan shaharlarni barpo etish aholi yashash joylarining rivojlanishiga olib keladi.

Xullas, mazkur muammoning o'rganilganlik darajasini tahlil qilishdan shu narsa aniqlandiki, shaharsozlikni rivojlantirish va uning arxitektura-rejalashtirish tizilmasini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar mavjud bo'lsada, shu choqqacha mazkur Dissertatsiya mavzusiga doir muammolarning yechimiga qaratilgan jiddiy ilmiy yondoshuvlar bo'lmagan.

Tadqiqotning Dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq F.1-023 "O'zbekiston arxitekturasi nazariyasi va tarixi, me'moriy qadriyatlar va an'analarimizni tadqiq qilish

²¹. Владимир В.В. и др. Город и ландшафт-М.,1986

²². Демин Н.М. .Управление развитием градостроительных систем.- Будівельник К.:, 1991-184 с

²³.Лежава И.Г. «Градостроительное проектирование»-Стройиздат, 1989 г., учебник, Авдоткин Л. Н., Лежава И.Г., Смоляр И. М.

²⁴. Яргина З.Н Градостроительный анализ-м., 1984 г

²⁵.Ветлугина А.В. Функционально-планировочная организация малых городов-структурных элементов территориальных градостроительных систем Узбекистана.-Автореферат канд.дисс.-Т., 2011.

²⁶. Исамухамдова Д.У., Адылова Л.А. "Шахарсозлик асослари ва ландшафт архитектураси". Дарслик. 1-қисм., Тошкент, 2009.

²⁷. Худоярова М.Б.. Аҳоли пунктларининг жамоат марказлари. Ўқув қўлланма "Zarafshon" нашриёти ДК, Самарқанд, 2019.

²⁸. Худоярова М.Б.. Аҳоли пунктларининг жамоат марказлари. Ўқув қўлланма "Zarafshon" нашриёти ДК, Самарқанд, 2019.

va ulardan samarali foydalanish” (2018-2022 y.) fundamental mavzu doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kichik shaharlarni respublikamiz hududlari (viloyatlari)dagi aholi joylashuvining shakllanishini, ularning rivojlanishi va taraqqiyotidagi zamonaviy tamoyillarni aniqlash asosida O'zbekiston kichik shaharlarini arxitektura-rejaviy takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

kichik shaharlarning zamonaviy guruxli aholi joylashuvidagi o'rni va ahamiyatini aniqlash;

kichik shaharlarning hududiy rivojlanishi va rejaviy strukturasi ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-iqlimiy va shaharsozlik omillari asosida takomillashtirishni tadqiq qilish;

shaharsozlik holatlarini o'rganib chiqish jarayonida to'plangan ma'lu-mot va izlanishlar natijasida kichik shaharlar rivojlanishidagi yangi yechimlarni shakllantirish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqish;

Samarqand viloyati shaharlari misolida kichik shaharlar rivojlanishining arxitektura-rejaviy strukturasi takomillashtirish bo'yicha takliflar berish;

Respublikamizdagi kichik shaharlarni zamonaviy innovatsion shaharsozlikni o'zida aks ettirgan shaharlarni tanlab olish va shular asosida taklif loyihalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekt sifatida Samarqand viloyatida joylashgan Poyariq, Urgut, Oqto'sh, Jomboy, Bulung'ur, Juma, Ishtixon va Nurobod kabi kichik shaharlar kiradi.

Tadqiqotning predmetini kichik shaharlarning zamonaviy aholi joyla-shuvidagi ahamiyati, ularning shaharsozlik, ijtimoiy-iqtisodiy qurilishdagi imkoniyatlar, arxitektura-badiiy va sanitariya-gigiyena yechimlari kompleksini ta'minlaydigan rivojlanish nazariyasi va amaliyotini o'rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi kichik shaharlari bosh rejalarini ishlab chiqishning yangi konsepsiyasidan kelib chiqib, vatanimiz va xorijdagi mavjud nazariy manbalarni kompleks va tizimli tahlili, statistik, kuzatuv, so'rov va tajriba usullari orqali kichik shaharlar zamonaviy holatini amaliyotda o'rganish, ularni taqqoslash va uzoq muddatli rejalashtirishga doir usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy, me'moriy-shaharsozlik nuqtai nazardan rivojlanishining muhim tamoyillari sifatida - uning geografik o'rni, kichik shaharning paydo bo'lishi va rivojlanish davri, ishlab chiqarish bilan bog'liqligi, ko'chalar estetikasi, mahalla moduli hamda shaharning strukturaviy tuzilishi kabilar muhim ahamiyat kasb etishi asoslangan.

kichik shaharlar arxitekturasini yaratish va rivojlantirishda ko'p asrlardan beri ijtimoiy hamkorlik ishonchini oqlagan "mahalla" me'moriy shaharsozlik moduli samaradorligi aniqlanib, uning o'ziga xos jihati sifatida aholining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-maishiy ehtiyojlariga bog'liq obyektlarning mahallalarda kompleks tarzda rejalashtirilishi zarurligi asoslangan.

kelajak kichik shaharlarining master planlarini ishlab chiqishda shaharsozlik yechimlari uchun ixcham chiziqli (murakkab relyefli hududlar uchun), chiziqli (magistral yo'llar bo'yi hududlari uchun) va radial-aylana (hududlarining relyefi va

iqlim sharoitiga bog'liq ravishda) kabi uch xil rejaviy sxemalarni qo'llash samaradorligi isbotlangan;

kichik shaharlarni ichki imkoniyatiga qarab funksiyalarga ajratgan holda sanoat korxonalari mavjud hududlarda sanoat shahri, tarixiy obidalari va qadamjolarga ega hududlarda turizm shahri, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga moslashgan hududlarda agrar sanoat shahri, tog' va tog'oldi hududlarda joylashgan shaharlarda tog'li-rekreatsiya hamda sanatoriya kurort shahar statusiga ajratish orqali shakllantirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kichik shaharlar arxitekturasini yaratish va rivojlantirishda ko'p asrlardan beri ijtimoiy hamkorlik ishonchini oqlagan "mahalla" me'moriy shaharsozlik modulini qo'llash taklif etilgan, Dissertatsiyada ushbu modulning konseptual me'moriy loyihasi ishlab chiqilgan bo'lib, u to'rtta variantda taqdim etilgan;

kelajak kichik shaharlarning shaharsozlik yechimlari uchun uch xil rejaviy sxema: ixcham, chiziqli va radial-aylana kompozitsiyalari taklif etilgan, sxemalarni tanlash shahar hududlarining relyefi va iqlim sharoitlariga qarab amalga oshirish ko'zda tutilgan;

Samarkand viloyati Samarqand tumani markazida, kichik shaharlarni innovatsion rivojlantirishning nazariy va amaliy loyihalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi ishda qo'llanilgan yondoshuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning eksperimental loyihalash orqali amaliyotga joriy etilganligi hamda ushbu loyihalarning amalga oshirilganligi bilan joriy etilgan natijalarning sohaga tegishli respublikadagi vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi, natijalarning xorijiy va respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi bilan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati O'zbekiston shaharsozligi nazariyasi sohasidagi bilimlarni kengaytirish va boyitish bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati arxitektura va qurilish tashkilotlarining faoliyatida, kichik shaharlarni rekonstruksiya qilish va bosh rejalarini ishlab chiqishda, zamonaviy arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirishga hamda oliy ta'lim muassasalarida arxitektura va shaharsozlik sohasidagi fanlarni o'qitishdagi vazifasi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekiston kichik shaharlari shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy tamoyillari tadqiqoti bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

kichik shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy, me'moriy-shaharsozlik nuqtai nazardan rivojlanishining muhim tamoyillari sifatida - uning geografik o'rni, kichik shaharning paydo bo'lishi va rivojlanish davri, ishlab chiqarish bilan bog'liqligi, ko'chalar estetikasi, mahalla moduli hamda shaharning strukturaviy tuzilishi kabilar muhim ahamiyat kasb etishi yuzasidan olingan natijalar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2022 yil 20 maydagi 06/5677-son ma'lumotnomasi). Yuqorida keltirilgan ilmiy natijaning qo'llanilishi me'moriy-shaharsozlik nuqtai nazardan rivojlanishining o'ziga xos jihatlarini ochish imkonini bergan;

kichik shaharlar arxitekturasini yaratish va rivojlantirishda ko'p asrlardan beri ijtimoiy hamkorlik ishonchini oqlagan "mahalla" me'moriy shaharsozlik moduli samaradorligi aniqlanib, uning o'ziga xos jihati sifatida aholining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy-maishiy ehtiyojlariga bog'liq obyektlarning mahallalarda kompleks tarzda rejalashtirilishi zarurligi asoslanganligi yuzasidan olingan natijalar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2022 yil 20 maydagi 06/5677-son ma'lumotnomasi). Yuqorida keltirilgan ilmiy natijaning qo'llanilishi Samarqand viloyatidagi kichik shaharlar misolida shaharsozlikda mahalla ananalarining qadimdan vujudga kelganligi va taraqqiy etganligi hususida aniq xulosa chiqarish imkonini bergan;

kelajak kichik shaharlarining master planlarini ishlab chiqishda shaharsozlik yechimlari uchun ixcham chiziqli (murakkab relyefli hududlar uchun), chiziqli (magistral yo'llar bo'yi hududlari uchun) va radial-aylana (hududlarining relyefi va iqlim sharoitiga bog'liq ravishda) kabi uch xil rejaviy sxemalarni qo'llash samaradorligi isbotlanganligi yuzasidan olingan natijalar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2022 yil 20 maydagi 06/5677-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi kichik shaharlarning master planlarini ishlab chiqishda muhim dastur sifatida qo'llanish imkonini bergan;

kichik shaharlarni ichki imkoniyatiga qarab funksiyalarga ajratgan holda sanoat korxonalari mavjud hududlarda sanoat shahri, tarixiy obidalari va qadamjolarga ega hududlarda turizm shahri, qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishga moslashgan hududlarda agrar sanoat shahri, tog' va tog'oldi hududlarda joylashgan shaharlarda tog'li-rekreatsiya hamda sanatoriya kurort shahar statusiga ajratish orqali shakllantirish taklif etilganligi yuzasidan olingan natijalar O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligining 2022 yil 20 maydagi 06/5677-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalarning qo'llanilishi hozirgi davirning yangi yo'nalishlarini rivojlantirish, mazkur sohalarda yangi sahifalarni ochib berish va ulardan unumli foydalanish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi: Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti va Toshkent arxitektura-qurilish universitetining maxsus ilmiy seminarlarida amalga oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi Respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, illyustratsiya va ilovalardan tashkil topgan, umumiy hajmi 131 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston kichik shaharlari rivojlanishidagi omillar va sharoitlar”** deb nomlangan birinchi bobida kichik shaharlarning hududiy aholi joylashuvidagi shakllanishi va rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy va tabiiy-iqlimiy xususiyatlari ko'rib chiqilgan.

Hozirgi paytda aholi joylashuvidagi asosiy muammolar qishloq aholisining kichik shaharlarga migratsiyasi bilan bog'liq. Qishloqlarda aholi o'sishi nisbatan yuqori bo'lib, o'rtacha yillik o'sish 1,3-1,7 foizni tashkil qiladi. 2030 yilda O'zbekiston aholisi 38,7 million kishini tashkil qilib, bu 2013 yil ko'rsatgichidan 22 foizdan ko'proqdir. 2030 yilga kelib o'rtiqcha mehnat resurslari 8 million kishini tashkil qilib, uning asosiy qismi qishloq joylariga to'g'ri keladi. Natijada migrasion jarayonlar kuchayib, aholining ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb qilish vazifasini dolzarb qiladi.

Respublika hududida aholi joylashuvining bir tekisda bo'lmagani sababli aholi joylashgan hududlardagi shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi ham bir xil emas. O'zbekiston hududidagi landshaft-iqlimiy sharoitlar aholi joylashuvidagi xilma-xillikni va uning chiziqli-tugunli tuzilmasi shakllanishini belgilab bergan. Respublikadagi arid iqlim sharoitida aholining joylashuv areallari suv zahiralari yetarlicha bo'lgan tekislikdagi hududlar va o'rta tog'li hududlardagi daryo vodiylari, shuningdek tog' oldi hududlarga bog'langan. O'zbekistondagi zamonaviy aholi joylashuv tizimi uzoq tarixiy davr mobaynida davom etgan rivojlanish jarayonida, aholi punktlari soni o'zgarishi, aholining ular hududida taqsimlanishi, ularning o'zaro funksional differensiasiyasi va integratsiyasi natijasida shakllangan.

Respublikadagi aholini joylashtirish tuzilmasining dinamikasi aholi punktlarining yanada chuqurroq xo'jalik ixtisoslashuvi bilan tavsiflanuvchi funksional differensiasiya yo'nalishida kechmoqda. Shu sababdan, aholining bugungi kundagi joylashuvi ma'muriy-boshqaruv funksiyalarini bajarishga qarab oddiy va tashkil etuvchi markazlar sifatida shakllangan shaharlar, shahar tipidagi posyolkalar va qishloq aholi punktlari ko'rinishida tavsiflanadi.

Zamonaviy shaharsozlik amaliyoti tadqiqoti shuni ko'rsatadiki, aholi joylashuvining arxitekturaviy-fazoviy rivojlanishida uch tamoyil mavjud: ixcham-konsentrik-markazdan tarqaluvchi; chiziqli-transport magistrallari bo'ylab; guruhli-aholi punktlarining o'zaro bog'langan holda rivojlanishi. Bu uch tamoyilni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, ixcham-konsentrik rivojlanish cheklangan imkoniyatlarga ega bo'lib, transport masalalari, hududiy rivojlanish va ekologik vaziyat bo'yicha qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Aynan shuning uchun XIX asr boshlarida aholi joylashuvidagi rivojlanish chiziqli va guruhli shakllarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb topilgan. Aynan chiziqli tamoyilga asoslangan rivojlanish o'zida cheksiz imkoniyatlarni mujassam qiladi. Aholi joylashuvi shakli va qurilmalar xarakteri bo'yicha o'zaro bog'liq

bo'ladi va bunda avtonom rivojlanadigan kichik shaharlar ajralib chiqadi. Bu holat aholi joylari orasidagi aloqalarning zichligini, xizmat ko'rsatish tizimining shakllanishini, markazlar iyerarxiyasini, muhandislik infrastrukturasi rivojlanishini belgilaydi. Birinchi ko'rsatkich bo'yicha yirik shaharlar aglomerasiyalari hamda guruhli va mahalliy aholi joylashuv tizimlari tarkibidagi kichik shaharlar kiradi.

Bajaradigan funksiyalarining xarakteri bo'yicha kichik shaharlar sanoat markazlari, ilmiy markazlar, logistika markazlari, transport tugunlari, kurort, balneologik markazlar va ko'p funksiyali shaharlarga ajratiladi. O'z navbatida, shaharlar-sanoat markazlari bir yoki bir necha sohalar tarkibidagi bir yoki bir necha ishlab chiqarish korxonolari asosida paydo bo'lishi mumkin; shaharlar-ilmiy markazlar, ilmiy-tadqiqot universitetlari va oliy o'quv yurtlari asosida, hamda ilmiy-tadqiqot universitetlari bilan bir qatorda ular bilan bog'liq tajriba ishlab chiqarish korxonolari joylashgan holda ham shakllanishi mumkin.

Aholi joylashuvining arxitektura-rejaviy shakllanishi turli omillar (tarixiy shakllanishi, egallagan joyi, iqtisodiy va ijtimoiy sharoiti, ekologik vaziyati) asosida tashkil topadi va butun aglomerasiya strukturasi asosiy ahamiyat kasb etadi.

Hozirda kichik shaharlar asosan tumanlar ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy-maishiy markazlari vazifalarini bajaradi. Ushbu shaharlarda sanoat korxonolari, transport taqsimlanish tugunlari, ta'lim, tibbiy va madaniy ilmiy markazlar joylashgan bo'lib, ular hududlar rivojlanishining asosiy bug'inlari hisoblanadi. Shunday qilib, tuman, viloyatlar va mamlakat iqtisodiyoti hududiy rivojlanishining muvozinati va tekislashuvi nafaqat katta va yirik shaharlar iqtisodiyotining rivojlanishi bilan, balki kichik shaharlar iqtisodiyotining rivojlanishi bilan xam chambarchas bog'likdir.

Kichik shaharlarni innovasion barqaror rivojlantirish tamoyillari asosida ular joylashgan hududlarning tabiiy iqlimiy sharoitlarini hisobga olgan holda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratilishi talab etiladi. Kichik shaharlarda ko'chalarni qutb tomonlari bo'ylab joylashtirish va ularni to'g'ri burchak ostida kesishuvini tashkillashtirish iqlim sharoitiga mos ravishda ularning insolyasiyasi va aerasiyasini taminlanishining muhim shartidir. Quyuq ko'kalamzorlashtirish va sug'orishning ochiq ariqlari va havzalaridan foydalanish issiq va quruq kontinental iqlim sharoitida kichik shahar hududlarida qulay mikroiklim tashkil qilish imkonini yaratadi. Tarixiy shaharlarni o'rganish shu narsani ko'rsatmoqdaki, asosiy ko'chalarni shimol-janub yo'nalishida joylashtirishga qadimgi davr shaharsozligida asos solingan bo'lib, Jonbos qal'a, Qo'y qirilgan qal'a va boshqa qadimiy shaharlar bunga misol bo'la oladi. O'rta asrlarda ushbu an'analar yanada rivojlantirilib, asosiy ko'chalar bu yo'nalishlarda joylashtirilib, ko'chalarning gilamsimon turarjoylarni kesib o'tishi natijasida o'ziga xos shahar strukturasi shakllanishiga olib kelgan.

Shahar tashqi muhitining iqlimiy holati mavjud ko'chalar va maydonlar shakli va o'lchamlariga bog'lik bo'lib, ular atrofidagi bino va inshootlar ham mikroiklimni yaratuvchi asosiy elementlardan hisoblanadi. Ko'cha va maydonlar atrofidagi binolar balandligining ushbu ko'cha va maydonlar kengligiga nisbati asosiy ko'rsatgichlardan biri hisoblanadi. Bu nisbat qanchalik kichik bo'lsa mikroiklimiy ko'rsatgichlar shuncha yaxshi bo'ladi. Shu narsadan kelib chiqqan holda o'rta asrlar me'morlari issiq iqlim sharoitida ko'cha va maydonlarning tor qilib yechilishiga katta ahamiyat berishgan. Ushbu yechimga asoslanadigan bo'lsak ochiq muhitdan keng foydalanish zamonaviy shaharsozlik loyihalarida asosiy tamoyil sifatida qabul qilinishi mumkin. Atrofi

imoratlar bilan o'ralgan ochiq maydonlar yoz paytida soya hisobidan minimal ravishda quyosh nurlanishiga ega bo'lgani sabab imoratlar devorlari ham ortiqcha ravishda isib ketmaydi. Natijada atrofi imoratlar bilan o'ralgan ochiq maydonlarda hamma tarafi ochiq bo'lgan maydonlarga ko'ra havo harorati bir necha gradusga past bo'ladi. Tun paytida atrofi imoratlar bilan o'ralgan bunday maydonlar iqlimiy ko'rsatgichlari mo'tadil bo'lib, atrofda imoratlarda ham qulay mikroiklim saqlanib qoladi. Shunday qilib imoratlar bilan o'ralgan ochiq maydonlar va hududlar an'anaviy shaharsozlikning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Bunga Samarqand va Buxoroda shahar ochiq maydonlari atrofida shakllantirilgan me'moriy shaharsozlik an'analari misol bo'la oladi.

O'rta asrlarda shaharning radial xalqasimon turi G'arb va Sharq mamlakatlarida keng tarqaladi. Bu usul shahar qal'asi atrofida uning diniy va ijtimoiy savdo markazi, turar-joy hududlari va hunarmandchilik ishlab chiqarishini ketma ket joylashuvi bilan xarakterlanadi. Ushbu usulning eng mantiqan to'g'ri tomoni jamoaviy funksiyalarni shahar hududi bo'yicha tekis taqsimlanishi (umumshahar va mahalliy markazlarda) bo'ladi. Asosiy ko'chalar shahar markazidan radial shaklda qal'aning tashqi devorlarigacha rivojlanib, radial-xalqasimon strukturaning asosini tashkil qiladi. O'rta Osiyoda o'rta asrlarda shakllangan shaharlar uch tarkibiy qismni o'z ichiga olgan: Ark, Shahrison va Rabod. Arkda hukmdor qal'asi va davlat idoralari; Shahrisonda Jome' masjidi, bozorlar va turarjoylar; Rabodda esa hunarmandlar ustaxonalari va ulgurji savdo bozorlari joylashgan. Ark va Shahrison mudofaa devorlari bilan o'rab olingan. Ba'zi shaharlarda rabod atrofi ham devor bilan o'rab olingan.

XIX asr oxiri-XX asr boshlarida industriyalashtirishning rivojlanishiga bog'lik holda Yevropa va Shimoliy Amerika shaharlarining jadal rivojlanishi va shaharsozlikning funksional nazariyasi rivojlandi. XX asr boshlarida rivojlangan davlatlarda ot kuchi yordamida harakatlanadigan transportning o'rnini mexanik transport egalladi. Avtomobil transportining rivojlanishi shaharlar eski ko'chalar tizimida bir qancha muammolarni yuzaga keltirdi va eski shaharlar inqiroziga olib keladi. XX asrga xos bo'lgan shaharsozlikning funksional yo'nalishi 1902 yilda fransiyalik Toni Garnye boshlab bergan industrial yoki boshqacha qilib aytganda sanoat shaharlarini loyihalash usuli asosida shakllandi. Uning asosini sanoat zonasiga nisbatan shaharni va temir yo'l transportini joylashtirish g'oyasi yotadi. XX asrda loyihalangan shaharlar bosh rejaları shaharlar hududini funksional bo'laklarga bo'lib, ularni o'zaro uzviy bog'lash g'oyasiga asoslangan. Bu bosh rejalarda shahar aholisi va u bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish korxonalari, turar joy majmualari jamoat va xizmat ko'rsatish inshootlari, istirohat maskanlarini rivojlantirish uchun shahar atrofida yerlardan qo'shimcha hududlarni o'zlashtirib olish hisobidan amalga oshirish ko'zda tutiladi.

O'tgan asrning 50-yillari o'rtasida grek shaharsozi K.Doksiadis kelajak shaharsozligi bo'yicha o'z g'oyalarini e'lon qildi. Doksiadis fikri bo'yicha kelajakda bir necha shahar o'zaro birlashib, yirik megapolisni tashkil qiladi. Hozirda dunyoning turli mamlakatlarida o'nlab yirik megapolislari shakllangan. Doksiadis nazariyasi bo'yicha jamiyat va ilmiy texnik rivojlanish natijasida kelajakda "ekumenopolis" shaharlarning yirik aglomerasiyalariga o'sib o'tishi amalga oshadi. Doksiadis o'zining kelajakdagi urbanizasiya tushunchasiga vaqt omilini (to'rtinchi o'lchov) asosiylardan biri deb ta'kidlagan. U monosentrik rejaviy tuzilishga ega dinamik shahar g'oyasini ilgari suradi. Shaharning hududiy o'sishi bir tomonlama chiziqli tizimga aylanadi. O'tmishdagi statik

shaharlar qayta qurilib, zamonaviy shaharga aylanadi va uning markazi kengayadi. Shahar o'sishi shunday tashkil qilinadiki, eski shaharlar yo'q bo'lib ketmaydi va keyingi elementlarni o'z ichiga olgan holda to'siqsiz hududiy va markaz elementlarining rivojlanishiga erishiladi. Dinamik shahar markazi tanlangan yo'nalishda erkin holda rivojlanadi va shahar o'sishiga mutanosib ravishda mosligi ta'minlanadi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston kichik shaharlarining rivojlanishidagi zamonaviy holatlar tadqiqoti”** deb nomlangan II bobida kichik shaharlar arxitektura-rejaviy strukturasi shakllanish xususiyatlari tadqiqoti o'tkazilgan, turli funksional turdagi kichik shaharlar rejaviy strukturasi tadqiqoti aniqlangan va har bir kichik shaharning rivojlanish dasturini ishlab chiqishda shaharning mavjud potentsiali (imkoniyatlarini) aniqlab olish zarurligi ta'kidlangan.

Rivojlanish dasturining aniq bir kichik shahar uchun ishlab chiqilishi jarayonida uning mavjud potentsialini kompleks tarzda aniqlash talab qilinadi. Bu bosqichda har bir hudud (viloyat) uchun mavjud kichik shaharlar imkoniyatlarini kompleks baholash talab qilinadi. Mahalliy sharoitlardan kelib chiqqan holda kichik shaharning asosiy funksional vazifasi aniqlanadi. Sanoat potentsialiga ega bo'lmagan kichik shaharlarni sanoat bilan bog'liq bo'lmagan funksiyalar: ilmiy tekshirish, turistik, transport, madaniy ijtimoiy vazifalarga moslashtirish talab qilinadi. Hududlar (viloyatlar) bo'yicha ishlab chiqilgan dasturlar asosida butun mamlakat uchun kichik shaharlar rivojlanishining kompleks dasturi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy qilinadi.

O'rtacha quvvatga ega korxonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil qilish orqali kichik shaharlarni rivojlantirish aholining bandligini ta'minlash va hududlarning rivojlanishida strukturaviy (tarkibiy) o'zgarishlarni amalga oshirishning samarali usulidir. Mantiqan qaralganda kichik shaharlar va kichik sanoat zonalaridagi o'rtacha quvvatdagi korxonalar tarmoqlarini shakllantirish hududlarning tarkibiy jihatdan o'zgarishi va aholi bandligini ta'minlab, hududlar iqtisodiy rivojlanishi uchun asosiy yo'nalishga aylanadi. Kichik shaharlar iqtisodiy jihatdan o'zlarida yirik ishlab chiqarish potentsialini jamlab, hududlar miq'yosida yirik shaharlardagi iqtisodiy faoliyatning jamlanishiga nisbatan yaxshi samaradorlikni ko'rsatib kelmoqda.

Har bir kichik shahar uchun innovatsion “pasporti”ni shakllantirish talab qilinadi. Kichik shaharlarni rivojlantirish uchun faqatgina mahalliy va hududiy boshqaruv organlari vakolatlari va imkoniyatlari yetarli bo'lmaganidan, markazlashgan yirik moliyaviy resurslar talab qilinadi. Hattoki unchalik katta bo'lmagan hududiy sanoat komplekslari va mavjud korxonalar, shuningdek infrastrukturaning modernizatsiyasi ham mahalliy byudjetda mavjud bo'lmagan yirik moliyaviy mablag'larni talab qiladi. Tashqi yoki ichki investorlarni jalb qilish uchun kichik shaharni raqobatlashuvchi shaharga nisbatan investitsion loyihani amalga oshirish uchun mavjud afzalliklarini ko'rsatish talab qilinadi. Bundan tashqari, investitsion pasportning mavjudligi loyihani amalga oshirishda yuzaga keladigan kamchiliklarning oldini olishga yordam beradi.

Tadqiqotda aniqlanishi bo'yicha hozirda O'zbekistonning barcha kichik shaharlariga xos bo'lgan quyidagi muammolar mavjud:

-turar joy, kommunal xo'jaligi va jamoat transportining rivojlanmaganligi va shahar turmush darajasining pastligi;

-ta'lim xizmatlarining cheklanganligi tufayli qobiliyatli yoshlarning o'rta maxsus va oliy ta'lim olish uchun kichik shaharlarni tark etishi;

- ishlab chiqarish korxonalarining texnik jihozlanganligining pastligi;
- mahalliy resurs va imkoniyatlardan samarali foydalanmaslik;
- mahalliy xomashyo va qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan iqtisodiyotni rivojlantirish darajasining pastligi;
- ishlab chiqarish va u bilan bog'lik soha rivojlanishidagi disproporsiya

Shaharsozlikning asossiz ravishda hududiy (ekstensiv), ayniqsa hosildor yerlar hisobidan kengayib borishini cheklash, shahardagi ortiqcha maydonlar, ko'chalar chetidagi ratsional foydalanilmayotgan yerlar, jismonan va ma'naviy eskirgan imoratlar, tashlandiq sanoat zonalar va boshqa maqsadlar uchun ajratilgan va foydalanilmayotgan lokal hududlarda zichlikni oshirib imoratlar qurish, kichik shaharlarning ortiqcha kengayib borishini to'xtatib, mavjud lokal, qayta foydalaniladigan hududlardan unumli foydalanib, iloji boricha zichlikni oshirish har jihatdan iqtisodiy samara beradi. Yer tejaladi, yo'l, irrigasiya, suv, kanalizasiya, transport va boshqa muhandislik kommunikasiyalari xarajatlari (qurilish va ekspluatasiya sohalarida) va boshqa ko'plab resurslar tejaladi. Kichik shaharlarda qayta ishlanuvchi va yangilanuvchi manbalardan, shu jumladan chiqindilardan, energiya, suv va boshqa ehtiyojlarni qondiradigan resurslar ishlab chiqadigan, ekologik toza, qayta ishlanuvchi qurilish materiallari va texnologiyalariga asoslangan, shu jumladan lanshaft dizayni elementlari qo'llaniladigan, zamonaviy texnologiyalar, kichik va o'rta biznes obyektlarini, o'rta va katta shaharlar bilan muloqotda bo'ladigan, ularning faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan aholi va ishlab chiqarish xom ashyosi bazasi hamda infrastukturasi o'zida mujassam etishi zamonaviy tamoyillar jumlasiga kiradi.

Shaharlarning cheksiz o'sib borishiga kontrargument tarzida bir necha shaharni, masalan viloyatlar ma'muriy hududi chegarasida yagona tarmoq sifatida rivojlanishini hisobga olib, aholi yashash guruhi tarzida loyihalash katta ahamiyatga ega. Bu ilgari (sobiq sho'rolar davrida) mavjud bo'lgan aholini guruhlab joylashtirish va viloyat tumani planirovkasidan keskin farq qilishi kerak. Mazkur masala ayniqsa kichik shaharlar tizimi uchun juda zarur hisoblanadi. Kichik shaharlar Respublikamizda aholi yashash joylarining asosiy turini tashkil qiladi va O'zbekiston shaharlari hamda boshqa aholi punktlarini yagona tarmoq tizimida shakllantirish uchun asosiy vosita hisoblandi. Shu tufayli kichik shaharlarning shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, uning shaharlar guruhini yagona tizim shaklida mujassamlashtirishdagi o'rnini o'rganib chiqish muhim ahamiyatga ega. Kichik shaharlar umumiy shaharlar tizimiga birlashuvi va o'z o'rnini topishi uchun bir necha talablarga javob berishi kerak. O'zining tabiiy-geografik joylashuvi, ishlab chiqarish infrastrukturasi qanday shakllanishidan qat'iy nazar ijtimoiy infrastrukturani, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, kommunal xizmati va boshqa ijtimoiy xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaratish hamda shu sohada boshqa aholi punktlari bilan uzviy ravishda rivojlana olish imkoniyatlariga ega bo'lishi muhimdir.

Shahar strukturasi umumshaharsozlik tizimiga muvofiq atrof muhitni buzmaganda, ekologik muvozanatni saqlash va takomillashtirish xam muximdir. Kichik shaharlar barqaror shaharsozligining to'rt asosiy alomati-ijtimoiy, iqtisodiy, energetik va ekologik ustunligiga mos kelishi, teran tafakkur va nafosatga asoslangan arxitekturaning shakllanishi uchun qulay imkoniyatga ega bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda kichik shaharlar O'zbekiston Respublikasi sharoitida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan

band bo'lgan aholi yashash joylarining ma'muriy markazlari sifatida quyi ma'muriy hudud chegarasidagi aholi punktlarining birlashishi uchun zarur bo'lgan vazifani bajarib kelmoqda.

Qazilma boyliklar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish markazi va ularni birlamchi qayta ishlash manbalarini o'zida mujassamlashtirish, sog'lamlashtirish, sanatoriy, turizm singari shahar tashkil qiluvchi omillarni hamda aholi bandligini ta'minlovchi kichik va o'rta biznes obyektlarini shakllantirish, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining yetarli turlari va hajmda barpo etish asosida kichik shaxarlarni rivojlantirish yaqin kelajakdagi asosiy vazifa hisoblanadi. Aglomerasiya va ma'muriy hudud hamda undan tashqaridagi aloqalar uchun zarur bo'lgan temir yo'l, avtomobil va boshqa transport xizmatini tashkil etishning tranzit (to'xtash, saqlash, xizmat ko'rsatish va boshqa) punktlari vazifasini bajarish xam kichik shaharlar asosiy vazifalariga kiradi.

